

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-1/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

| | |
|--|---|
| <i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i> | <i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i> |
| <i>Абдуллаев Баҳром Исмоилов, ф-м.ф.д.</i> | <i>Рахимов Рахим Атажонович, т.ф.д., проф.</i> |
| <i>Абдуллаев Рашиан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i> | <i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.</i> |
| <i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i> | <i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i> |
| <i>Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i> | <i>Рўзбоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i> |
| <i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i> | <i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i> |
| <i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i> | <i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i> |
| <i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i> | <i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i> |
| <i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i> | <i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i> |
| <i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i> | <i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i> |
| <i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i> | <i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i> |
| <i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i> | <i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i> |
| <i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i> | <i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i> |
| <i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i> | <i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i> |
| <i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i> | <i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i> |
| <i>Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.</i> | <i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i> |
| <i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i> | <i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i> |
| <i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i> | <i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i> |
| <i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i> | <i>Эичанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i> |
| <i>Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc</i> | <i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i> |
| <i>Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i> | <i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i> |
| <i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i> | <i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i> |
| <i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i> | <i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i> |
| <i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i> | <i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i> |
| <i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i> | |
| <i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i> | |

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1/3 (97), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 149 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтакавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

| | |
|---|-----|
| Alieva N. Conceptual foundations for the study of phraseological units and collocations in english, russian and uzbek | 5 |
| Aytmuratov A.M. Raqamli texnologiyalar sohasidagi yangi terminlarning til ilmi sohasidagi ahamiyati | 7 |
| Bekmurodova F.N. Translation issues of linguacultural concepts in novels | 11 |
| Haydarov A.A., Mansurova D. So'zlashuv va badiiy nutqda intonatsiyaning roli | 14 |
| Haydarov A.A., Mo'minova R. Antroponimlarni tahliliy o'rganish | 17 |
| Haydarov A.A., Ro'ziyeva N. Konnotativ ma'noning nutq birliklarida ifodalanishi | 19 |
| Haydarov A.A., Sattorova Sh. Modallikning ifoda vositalari | 22 |
| Husaynova M.M. O'zbek milliy latifalari matning leksik-stilistik xususiyatlari | 24 |
| Ishqobilova H. The concept of value in linguistic culture and its brief analysis within the concepts of "hospitality and solidarity" | 26 |
| Ismoilova O.I. HNP ₂ komponenti o'rinda kelgan ikki valentli elementlar ifodalagan sintaksemalar | 29 |
| Jurayeva N.G. Mumtoz she'riyatning nazm tuzilishiga bir nazar | 33 |
| Khakimova M.F. The literary translation of the passage from A. Mukhtar's novel "Platan" | 37 |
| Kutlimuratova G.K. Konsepsiya maydon qurilishi haqida | 40 |
| Makhammadov B. Ingliz tilidagi AOTMI terminlarining genetik xususiyatlari | 42 |
| Mahmudjonova M.X. Sintaktik sathda valentlik nazariyasi haqida ayrim mulohazalar | 47 |
| Mavlonova M.M. Pedagogical strategies of improving english in andragogy education | 50 |
| Minniqulov I.U. Tilshunoslikda aksiologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari | 53 |
| Mirzazoda D.M. O'zbek tilida suyish funksional-semantik ma'nosining gender xususiyatlari | 56 |
| Nurjanov O. O'zbek tili etnografik leksikasining dialektal xususiyatlarini o'rganish muammosi | 60 |
| Qodirova M., Soqiyeva Sh. Pronominal murojaat shakllarida implikaturaning roli | 62 |
| Qulniyozova Sh.N., Uralova O.P. O'zbek va ingliz tillarida kosmonimlar hosil bo'lishining linguokulturologik xususiyatlari | 65 |
| Sabirova N.E. Xorazm dostonchiligi rivojida Ustoz-shogirdlik an'analari | 67 |
| Saparova Q.O., Irgasheva U.A. Xitoy tiliga oid til materiallarini baholash xususiyatlari haqida | 71 |
| Sapayeva F.N. Xorijiy tillarni (ingliz tili) o'zlashtirishda o'yinlar orqali og'zaki nutqni rivojlantirish | 74 |
| Shokarimova K.A. Poetik matnlarda vizualizatsiya darajalari | 77 |
| Sobirov M.M. About learner's dictionaries of uzbek language | 79 |
| Turdimurodov S. Evfemik graduonimiyada aynanlik va farqlilik tamoyili | 82 |
| Ubaydullayeva Z.H. Hissiyot tushunchasi va hissiyotlar lingvistikasi | 85 |
| Xusainova Sh.E. Tibbiyot sohasi misolida termin va tushuncha munosabati | 89 |
| Абдувалиев М.А. Ўзбек тилида тўсиқсизлик концептини воқелантирувчи лексик birliklar | 92 |
| Азимов У.С. Одний фольклоризм: таржима ва аслият | 94 |
| Бегимов О.Т. Сарик сўзининг апеллятив ва ономастик сатҳда қўлланиш хусусиятлари | 97 |
| Вахабова М.Т. Становление лингвокультурологии как самостоятельной научной дисциплины | 101 |
| Есемуратова У.Х. «Давлетярбек» достони ва достондаги образлар | 104 |
| Казаков И.Р. Қорақалпоқ тилшунослигида лингвокультурологик талқинлар | 106 |
| Мадалов Н.Э. Инглиз ва ўзбек тилларидаги табиат ҳодисаси билан боғлиқ мақолларда синоним ва антоним муносабатларини ифодаланиши | 110 |
| Мамурова М.М. "Ғазнавийлар" романида халқ оғзаки ижоди намуналарининг ўрни ва туш мотиви | 114 |
| Мақсетова З.Ш., Джолдасова Г.Б. Инсон интеллектуал қобилиятин ифодаловчи фразеологик birliklar таҳлили | 117 |
| Минаварова Г.М. Заимствование – как процесс развития языка | 120 |

English: *Mubarak's father was a carpenter in the winter, making doors, beshyks, sumacs, sandals, and zarang dishes. (S.Nurov, Verdures are not frozen)*

Uzbek: *Beshikkerti bo'lgandan buyon, har yil rasm-rusmlarini qilishib, yaqin vaqtlarda to'yligini ham berib qo'yibdi. (Hamza, Boy ila xizmatchi)*

English: *After having beshikkerti, every year they hold all necessary ceremonies along with "to'ylik" (Hamza, The rich and a servant)*

Uzbek: *Baxt beshigin quchoqlab, bizni ulg'aytirdingiz.. (G'. G'ulom, Asarlar)*

English: *Holding happiness in you, upbrought us kindly. (G.Gulam, Selected works)*

Uzbek: *Nyurnberg yamyashil o'tloqlar million-millionlab qo'zi, toychoqlarning beshigi bo'lur. (G'. G'ulom, Asarlar)*

English: *Nuremberg is the land of green meadows and millions of lambs and foals. (G.Gulam, Selected works)*

As far as all examples are highlighted above, the linguacultureme 'beshyk' plays an important role in Uzbek culture. It determines not only the item which baby is laid but also there are more than 10 ceremonies that take place traditionally. If the last two examples are analyzed pragmatically, its basic meaning will disappear in translation. In the former one, 'beshyk' – 'baxt beshigi' had a meaning of the basis of something so it had been translated into English as "happiness in", also in the latter example, it's meaning expresses the cornerstone of a certain phenomenon as 'toychoqlarning beshigi' was translated as "the land of lambs. However, this culture-related concept depicts that 'beshyk' is the place where all things are commenced and all occasions are start getting hold of.

To sum up, this article involves basic analysis of the culture-related concepts. In particular, different types of approaches of translation which could be utilized in translation of lingua-cultural concepts are provided above. With the help of those methods of translation, we made analysis of linguaculturemes which are unique for the Uzbek language. However, there had been some obstacles when such words are combined within idioms or other collocations. In other words, such words have been interpreted into English in order to keep its fundamental meaning. While providing interpretations of Uzbek realias, we tried to give its evolution, how it appeared, and its current role in today's culture. Furthermore, in order to elucidate linguapragmatic features of those culture-related concepts, we provided several examples in different discourse. By giving such examples, it became clear that such words can mean totally different in different discourse. In other words, the expressions analyzed under lingua-pragmatics have a unique value in being used as they are in social interaction: changing them in any way different from the norm would imply either changing the social values expressed by them as in the examples.

REFERENCES:

1. <https://culturesconnection.com/20quotes-about-translation>
2. <https://culturesconnection.com/7-translation-techniques>
3. Zoya Proshina "Theory of translation" chapter 5, p35.
4. Translation techniques second year level at University of Abou Bakr Belkaid, department of English, Unit 1, lecture 2 p2
5. Cambridge English Dictionary, <https://dictionary.cambridge.com>
6. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995, B.97
7. Влахов С. И., Флорин С. П. Непереводимое в переводе, - М., Международные отношения, 1980, С.333
8. Лобачева Н. П. Различные обрядовые комплексы в свадебном торжестве народов Средней Азии и Казахстане // До мусульманская версия и обряды в Средней Азии. –М.: Наука, 1975, 302-320 стр.

UO'K 801.41

SO'ZLASHUV VA BADIY NUTQDA INTONATSIYANING ROLI

A.A.Haydarov, prof., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

D.Mansurova, magistr, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ma'lumki, fonostilistika tilshunslilikning keyingi taraqqiyotida fonetika va stilistika fanlari orasida paydo bo'lgan yangi yo'nalishdir. Fonostilistikada nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari, shuningdek, supersegment fonetik vositalar: intonatsiya, pauza va urg'uning konnotativ ma'no ifodalashi o'rganiladi. Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari va emotsional –

ekspressiv bo'yoqlarini ifoda qilish uchun xizmat qiluvchi ritmik – melodik tomoni, ovozning baland – pastligini ifodalovchi supersegment elementdir. Ushbu maqolada intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Fonostilistika, intonatsiya, pauza, urg'u, ritmik – melodik, nutq tempi, nutq tembri, logik urg'u, emfatik urg'u, emotsional – ekspressivlik.*

Аннотация. *Известно, что фоностилистика – это новое направление, возникшее между науками фонетикой и стилистикой в дальнейшем развитии языкознания. Стилистические особенности звуков речи в фоностилистике. Также изучаются надсегментные фонетические средства: интонация, пауза, ударение, которые выражают коннотативное значение.*

Интонация — надсегментный элемент, служащий для выражения синтаксических значений и эмоционально-экспрессивной окраски речи, рифмо-мелодической стороны, высокого-низкого голоса. В статье рассматривается уровень коннотативно-смысловой экспрессии интонации.

Ключевые слова: *фоностилистика, интонация, пауза, ударение, ритмико-мелодический, темп речи, тембр речи, логический акцент, эморатический акцент, эмоционально-экспрессивность.*

Abstract. *It is known that phonostylistics is a new direction that emerged between the sciences of phonetics and stylistics in the further development of linguistics. Stylistic features of speech sounds in phonostylistics. Also, supersegmental phonetic means: intonation, pause, and stress, which express connotative meaning, are studied. Intonation is a supersegmental element that serves to express the syntactic meanings and emotional-expressive colors of speech, the rhythmic-melodic side, and the high-low voice. This article discusses the level of connotative meaning expression of intonation.*

Key words: *phonostylistics, intonation, pause, stress, rhythmic-melodic, tempo of speech, timbre of speech, logical accent, emfatic accent, emotional - expressiveness.*

Tavsifiy fonetikada nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, tiplari, bo'g'in, intonatsiya, pauza kabi fonetik hodisalar va ularga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Nutqiy aloqa jarayonida qayd qilingan hodisalar yaxlit bir sistemaga birlashib, nutqiy aktini yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham bunday hodisalar talqini va tadqiqida ularni alohida –alohida o'rganish bilan birga, biri ikkinchisini taqozo etuvchi hodisalar, boshqacha aytganda, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan birliklar ekanligini nazarda tutish kerak [1,24 – 28].

Intonatsiya supersegment fonetik vositalardan biri bo'lib, unga "nutqning sintaktik ma'nolarini va ekspressiv – emotsional bo'yoqlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi ritmik – melodik tomoni, ovozning baland – pastligi,ohangi" deb ta'rif berilgan [5,45].

Tilshunoslikda intonatsiyaning ikkinchi nomi intonema, u bilan shug'ullanuvchi sohaning nomi esa intologiya ekanligi ham qayd etilgan [2,23].

Yevropa va us tilshunosligida intonatsiya masalalari: Antonova D.N, Artyomov Z.A, Barishnikova K, Brizgunova E.A, Zlatouyetova L.V, Kanxter L.A, Machnova P.A, Muxanov N.A, Peshkovskiy M, Svetazarova N.D, Torouyev G.P, Trubetskoy V.A kabi tilshunoslarning ilmiy ishlarida yoritilgan. O'zbek tilshunosligida esa intonatsiya haqidagi mulohazalarni A. G'ulomov, A. Abduazizov, A. Abdullayev, B. Yo'ldoshev, H. Yo'ldosheva, S. Karimov, J. Mamatov, A. Mahmudov, E. Qilichev, G. Yaxshiyeva, B. O'rinboyev, R. Qo'ng'urov, A. Haydarov, I. Hojialiye, M. Mirtojdiyev kabi tilshunoslar asarlarida uchratish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning fikricha, intonatsiya gapning mantiq urg'usi, emfatik urg'u hamda pauza kabi omillarning har biri o'zicha mustaqil vazifa bajara olmasligi, ularning yig'indisi bir butun hamda nutqning talaffuz qilingan qismi intonatsiyasi bo'lishidir. Intonatsiya bahsida gap tezligi, gap ohangi, gapdagi pauzalar haqida mulohaza yuritish lozim bo'ladi. Intonatsiya nutq uslublarining barchasida uchraydi. Ilmiy uslubdan tashqari qolgan barcha nutq uslublarida intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi kuchlidir. Og'zaki nutqda intonatsiya yozma nutqda tinish belgilari vositasida amalga oshiriladi. Intonatsiya gapda turli xil vazifalarni bajaradi. Jumladan, u gap tipini,

komponentlari orasidagi bog'lanishni, modallikni, emotsional bo'yog'ini hamda gapda ifodalangan sanash, qarama – qarshi qo'yish, chog'ishtirish kabi qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi.

“Ilmiy ma'nalarda” – deb yozadi tilshunos olim S. Karimov, takt intonatsiyasi degan tusuncha mavjud. Matn tarkibidagi gaplar muayyan taktlarga bo'linar ekan, gapning ushbu qismlari alohida intonatsiya bilan talaffuz etilishi zarur bo'ladi, takti poetik matnlarini o'qilishidagi maromlilik desak, deb ushbu to'rtlikni keltiradi [3, 23].

Daryolardan/ talab qilma suv,

Daraxtlardan/ so'rama soya.

Unut bo'lgan/ bundayin tuyg'u;

Badar ketgan/ bundayin g'oya. (A. Oripov)

Emotsional – ekspressivlikni ifodalashda intonatsiya alohida xarakterga ega, u har qanday gapning asosiy va xarakterli belgisidir. Emotsionallik gap tezligiga qarab ham belgilanadi. Shu sababdan darak gapga nisbatan so'roq gaplar ohangi davomli talaffuz etiladi.

Masalan: Why should it worry you?

What's the good of doing that?

How about phoning them?

Ajratilgan gap bo'laklari, undalma, kirish so'zlar, og'zaki nutqda ohang bilan ajratiladi, yozma nutqda esa tegishli tinish belgilari bilan ajratib yoziladi.

Masalan: **Really!** Well you must get him.

Ushbu misoldagi **Really** kirish so'zi yozuvda undov bilan ajratilgan bo'lsa, og'zaki nutqda intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.

- **Perhaps**, it will rain!

Misoldagi **perhaps** kirish so'zi yozuvda vergul bilan ajratilgan, og'zaki nutqda esa intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Intonatsiyaning emotsionallik jihati asosan uslubiy ma'no ifodalaydi. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishda muhim fonostilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Uslubiy ma'no ifodalandimi, unda albatta konnotativ (qo'shimcha) ma'no ifodalashi tabiiydir. Bunday konnotativ ma'nolar e'tiborsizlik, sovuqqonlik, befarqlik, qat'iyatlilik, do'q – po'pisa qilish, yalinish, iltimos kabilardir. So'roq gaplarda esa past – pasayuvchi (low – low) ohang asosan jiddiylik, ma'suliyatlilik, javobgarlik, vaziyatni to'g'ri baholash kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi [4, 69-72].

Quyidagi misollar tahliliga e'tibor qaratamiz.

a) Holatni ifodalashda:

Pete plays football very well. – Petya futbolni juda yaxshi o'ynaydi.

Ushbu gap talaffuzi jarayonida ovoz pastga tushadi hamda qoniqish, zavqlanish, xursandlik kabi konnotativ ma'nolar ifodalanadi.

b) Buyruqni ifodalashda:

Go out! – Tashqariga chiq!

Buyruq ohangida talaffuz qilinga ushbu gapda buyruq, do'q urish, qat'iyatlilik kabi “qo'shimcha” ma'nolar yuzaga chiqadi.

c) Umumiy so'roq gaplarda:

Do you mind my opening the window? – Derazani ochishga qarshi emasmi?

Ushbu gapda so'roq mazmuni bilan bir qatorda “iltimos”, “yalinish”, “iltifot qilish” kabi “qo'shimcha” ma'nolar ifodalanganligini ko'rish mumkin.

d) His – hayajon gaplarda: What a fine day! – Qanday ajoyib kun!

Ushbu gapda diqqatni tortish, xursandlik, zavqlanish, taajjub kabi konnotativ ma'nolar ifodalangan. Yuqoridagi gaplarning tahlili shuni ko'rsatadiki, intonatsiyaning o'zgarishi bilan so'zlovchining turli xil xisssiyotlari ifodalanadi, ya'ni jumlarlar bir – biridan ajratiladi va so'zlovchi o'zi aytgan fikriga bo'lgan pragmatic munosabatini ko'rsatadi. Intonatsiya nafaqat so'zlashuv, badiiy nutq uslublarida, balki poeziyada ham muhim rol o'ynaydi. She'r turoqlarining talaffuzida intonatsiyaning ahamiyati katta bo'lib, she'riy asarlar qofiyaga asoslangan bo'lib, intonatsiyasiz o'qishga she'r mazmunsiz va to'mtoq bo'ladi. Nazmiy asarlarning ta'sirchanligini oshirishda shoirlar takror stilistik figuradan unumli foydalanadilar, takrorga asoslangan she'rni intonatsiya

bilan o'qish yoki aytish muhim fonostilistik vazifani bajaradi. Quyidagi she'riy misralar so'z takroriga asoslangan:

It was many and many a year ago,
In a kingdom by the sea.
That a maiden there lived whom you may know.
By the name of Amable Lee.
And this maiden [she lived with no other thought]
Than to live and be loved by me (A. Poe)
Quyidagi she'rda esa bir xil tovushlarning takrori aks etgan.
Sim –sim yomg'ir sirli soz misol.
Pichirlaydi asta tabiat.
Saxiyliги ortganday qat – qat.
Go'yo deydi ol, ol, olib qol (Mirtemir “ Yoz – yomg'iri”)

Yuqorida keltirilgan har ikkala tildagi she'riy parchalarni intonatsiya bilan o'qish kitobxon xotirasida uzoq saqlanadi, hamda uni zavqlantiradi.

Xulosa. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki og'zaki nutqni intonatsiyasiz shakllantirib bo'lmaydi. Qaysi bir fonetik xodisa stilistik vazifani bajarayotgan bo'lmasin, uni intonatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Intonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubiy bo'yoq berishida muhim fonostilistik vosita xisoblanadi. Intonatsiya orqali konnotativ ma'no ifodalanishi boshqa til birliklariga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Intonatsiya va uning komponentlari: Pauza va urg'ularning nutqda bir vaqtda qo'llanishi kuchli konnotativ ma'noni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Abduezizov A.A Fonostilistik vositalarning o'rganilishiga doir.// O'zbek tili va adabiyoti – T.1985. N 2. – B. 24 – 28.
2. Jamolxonov. X. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. – T: “Fan”, 2009 – B.170.
- 3.Karimov S.A. O'zbek tilining fonetik stilistikasi. Samarqand . 2016. – B.23.
- 4.Haydarov A.A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDu Ilmiy Axbaroti. 2006. N1. – B. 69 – 72.
- 5.Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T: 1985. – B.45
- 6.Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2022). Semantic properties of anthroponyms. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.

UDC 81'373.237

ANTROPONIMLARNI TAHLILIIY O'RGANISH

A.A.Haydarov, prof., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
R.Mo'minova, magistr, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotasiya. Ushbu maqolada antroponimlarni tilshunoslikda tahliliiy o'rganilishi, muhim o'rin egallashi va bir necha olimlar tomonidan izlanishlar olib borilganligi masalasi tadqiq etilgan. Ijtimoiy hayotda antroponimlarning o'rni, ahamiyati ilmiy nuqtai nazar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: antroponim, onomastika, shaxs, familiya, tadqiqot, ilmiy

Аннотация. В данной статье рассматриваются антропонимы, их аналитическое изучение, их важная роль в языкознании, а также исследования, проведенные рядом ученых. С научной точки зрения изучена роль и значение антропонимов в общественной жизни.

Ключевые слова: антропоним, ономастика, лицо, фамилия, исследование, научный

Abstract. This article examines anthroponyms, their analytical study and important role in linguistics, and the research conducted by several scholars. The role and importance of anthroponyms in social life has been studied from a scientific point of view.

Keywords: anthroponym, onomastics, person, surname, research, scientific

Kirish: Tilshunoslikda kishi nomlarini o'rganish, biror-bir ismning paydo bo'lishi, tanlanishi va ism qo'yilishi masalalari ko'p vaqtdan buyon tilshunoslar, etnograflar va nomshunoslar diqqatini jalb etib kelayotgan sohadir. Ismlarning yuzaga kelishi nafaqat ma'naviy, balki moddiy va amaliy tadbirlar hisoblanadi. Antroponimlar xalqning milliy-madaniyati, urf-odatlarini, etnik kelib chiqishi, udumlari bilan bevosita bog'liq. Ismlar shaxsning sog'lig'iga, kelgusi taqdiriga, kelgusidagi hayotini